

**О'ЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

“РЎЙХАТГА ОЛИНДИ”

№ ВМ – 343 – 5А340801 – 2.01

“1” ИЮЛЬ 2003 й.

“ТАСДИҚЛАНДИ”
Ўзбекистон Республикаси
Олий ва ўрта махсус
таълим вазирлиги

“8” ИЮЛЬ 2003 й.

**SOLIQ ORGANLARINING
TASHKILY ASOSLARI
fanidan
DASTUR**

**Oliy ta'limning 340000 – “Biznes va boshqaruv” ta'lim sohasidagi
5A340801 – “Coliqlari va soliqqa tortish” magistratura
mutaxassisligi uchun**

Tashkent - 2003

Tuzuvchi: i.f.n., B.S. Umarov
Taqrizchilar: i.f.n. A.Kamolov
i.f.n., dots. F.Bozorov

O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi va Oliy ta'limning davlat standartlariga asosan "Soliqlar va soliqqa tortish" mutaxassisligi bo'yicha "Soliq organlarining tashkiliy asoslari" fani mutaxassislik fanlarining bir qismi sifatida o'qitiladi.

Ushbu fanni o'qitish jarayonida O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida soliq organlarining tutgan o'rnini, zaruriyati, ahamiyati va mohiyati ochib beriladi. Mazkur dasturda soliq organlarining tashkiliy va tarkibiy tuzilmasi, soliq organlarining roli, huquqiy asoslari, huquq va vazifalari, shakllanish bosqichlari hamda qonunchiligidagi oxirgi qo'shimcha va o'zgarishlar o'rganib chiqiladi.

На основе Национальной программы по подготовке кадров Республики Узбекистан и государственного стандарта Высшего образования по направлению "Налоги и налогообложение" дисциплина "Налоговое администрирование" является предметом по специальности.

В процессе обучения данной дисциплине раскрываются темы и роль налогового администрирования в системе налогов Республики Узбекистан, а также необходимость, его значение и сущность в целом. В настоящей программе в основном изучаются такие темы как, структурное и общее построение налоговых органов, их роль в системе налогов, правовые основы, права и обязанности, этапы формирования, а также последующие изменения и дополнения в законодательстве.

On basis the National program on a professional training Republic of Uzbekistan and state standard of Higher education on a direction "Taxes and taxation" discipline "Tax administration" is a subject on a specialty.

Process of teaching this subject opens level, what role of tax administration in tax system of taxes of Republic of Uzbekistan and also value and essence as a whole are opened. In the present program themes as, a structural and general condition of tax bodies, a role of tax bodies in tax system, legal bases, rights and a duty, stages of formation and also change and addition and other are studied.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 25 aprel 9-sonli bayonnoma).

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

1. SO'Z BOSHI

O'qitishning maqsadi va vazifalari

"Soliq organlarining tashkiliy asoslari" fanini o'qitishdan maqsad ta'lim olaetgan magistr'larga O'zbekiston Respublikasi soliq organlarining tarkibiy tuzilishi hamda huquq va vazifalari bilan tanishtirib, ularni iqtisodiy bilimlarini oshirish hamda chuqurlashtirish bilan bir qatorda olaetgan bilimlarini Respublikamizning iqtisodiyoti amaliyotida qo'llay olishini o'rgatishdir. Fanning oldiga qo'yilgan vazifalar asosan talabalarni soliq idoralarini amaliy faoliyati bilan yaqindan tanishtirib, ularning huquq va vazifalari, faoliyatidagi qo'shimcha hamda o'zgarishlar bilan tanishtirishdan iborat.

Fan bo'yicha magistr'larning bilimiga, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar

"Soliq organlarining tashkiliy asoslari" fani bo'yicha har bir talaba bilimini mustahkamlash uchun soliq idoralarining huquqiy asoslari (yo'riqnomalar, ko'rsatmalar, tushuntirish xatlari hamda qo'shimcha va o'zgarishlar) bilan kompleks tanishib, o'rganib borishlari zarur.

O'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan aloqasi

"Soliq organlarining tashkiliy asoslari" fani qator fanlar bilan uzviy bog'langan. Dastlab boshlang'ich bilim olish maqsadida "Soliq nazariyasi", "Moliya nazariyasi", "Iqtisodiy nazariya" fanlarini o'rganish, shuningdek "Soliq va soliqqa tortish", "Buxgalteriya hisobi va audit", "Xorijiy mamlakatlar soliq tizimi" fanlarini ham puxta o'rganish lozim. Amaliyotda harakat qilish doirasiga qarab bu fan "Iqtisodiy tahlil", "Informatsion texnologiyalar" hamda boshqa fanlar bilan ham uzviy bog'langan.

Fanni o'qitishda yangi texnologiyalar

Fanni chuqurroq o'rganish maqsadida soliq organlarining tashkiliy asoslari fanini har bir mavzusi bo'yicha amaldagi qonunchilik tomonidan ishlab chiqilgan huquqiy hujjatlardagi qo'shimcha va o'zgarishlar mashg'ulotlarda to'liq beriladi. Shuningdek, mavzular bo'yicha tahliliy materiallar to'plangan va kompyuterdan keng foydalaniladi.

Fanni o'qitish semestrlari va uslubiy ko'rsatmalar

"Soliq organlarining tashkiliy asoslari" fani talabalar nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlagandan so'ng tegishli mutaxassislik fani sifatida tashkil etiladi. Dasturda quyidagi masalalar aniq eritib berilgan: fanning mohiyati va zarurligini aniq ochib berish uchun ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarning tuzilishi, umumiy hajmiga alohida e'tibor berish:

- fan bo'yicha ajratilgan maslahat soatlari orqali amaliyotda yuzaga kelaetgan muammolar, qo'shimcha va o'zgarishlarni tushuntirish hamda talabalarining bilim darajasini yanada mustahkamlashning ko'zda tutilishi;
- hozirgi vaziyatdan kelib chiqib, talabalarining amaldagi holat bilan aloqasini kengaytirish va mustaqil o'rganish uchun mavzular bo'yicha qo'shimcha topshiriqlar berilishi.

Umumiy va o'quv ishlari turlari bo'yicha hajmi

Oliy kasbiy ta'limning davlat standartlariga muvofiq mazkur kursga 40 soat ajratilgan. Uning 20 soati ma'ruza, 20 soati amaliy mashg'ulot.

2. FAN DASTURI

Fanning mazmuni

"Soliq organlarining tashkiliy asoslari" fanini o'rganish uchun 2 qismga-ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarga bo'lamiz. Ma'ruza mashg'ulotlarida asosan o'rganiladigan mavzu bo'yicha o'qituvchi tomonidan beriladigan ma'lumotlarga asoslanadi. Shuningdek, amaliy mashg'ulotlar ma'ruzalar yuzasidan erkin fikrlarga asoslanadi. Bundan tashqari mavzu bo'yicha qo'shimcha adabiyotlar va tegishli yo'riqnomalar bilan tanishtiriladi.

Ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari

Soliq xizmati idoralarida soliq yuzasidan ishlarni tashkil qilish. O'zbekiston Respublikasi soliq xizmati idoralarini tashkiliy tuzilmalari

Soliq xizmati idoralarining funksiyalari va vazifalari. Soliq xizmati idoralarining yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlarni hisoblash va to'lashlari ustidan nazorati. Soliq xizmati idoralarining jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni hisoblash va to'lashlari ustidan nazorati. Soliq munosabatlarida yuzaga keladigan muammolarni hal etilishini tashkillashtirish.

Soliq organlarining tashkiliy asoslari soliq tizimini zaruriy elementi sifatida

Soliq tizimini rivojlanish jarayonida soliq xizmati idoralarining tutgan o'rni va ahamiyati. Ikki tomon o'rtasida soliq munosabatlarini shakllantirishda soliq xizmati idoralarining funksiyalari va vazifalari. Soliq xizmati organlarining huquq va majburiyatlari va ularni yanada takomillashtirish.

O'zbekistonda soliq organlarining shakllanish bosqichlari va rivojlanish tarixi

Dastlab soliq xizmati idoralarining tashkil topishi va ularning huquqiy asoslari. Soliq xizmati idoralarining shakllanish bosqichlari hamda soliq to'lovchilarni hisobga olish. Soliq xizmati idoralarining tarixiy rivojlanishi va soliq nazorati shakllari.

Soliq tizimini rivojlantirishda soliq organlarining rolini kuchaytirish masalalari

Soliq xizmati organlarini davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi majburiyat va vazifalari. Soliq xizmati organlarining tomonidan amalga oshiriladigan tekshiruvlar tartibi va ularning turlari. Soliq qonunchiligini buzganlik uchun soliq idoralari tomonidan qo'llaniladigan jazolar. Soliq xizmati idoralarini o'z xizmat va majburiyatlarini kuchaytirish masalalari.

Soliq idoralari huquqiy asoslarini tashkil topishi va qushimcha va o'zgarishlar hamda ularni takomillashtirish

Soliq xizmati organlarining tarkibiy tuzilishi to'g'risidagi huquqiy asoslar hamda ulardagi qo'shimcha va o'zgarishlar. Soliq xizmati organlarining tarkibiy tuzilishi elementlari. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi tasnifi. Soliq tizimini optimallashtirish uchun qo'yilgan majburiyatlar. Soliq idoralari huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari.

Soliq idoralari huquq va vazifalarini hamda tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish

Soliq xizmati organlarining tarkibiy tuzilishi va ulardagi o'zgarishlar. Soliq xizmati organlarining huquq va vazifalari. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi shakllanish bosqichlari. Amaldagi soliq siesatining asosiy kontseptual yo'nalishlari. Soliq organlarining huquqiy asoslari (qo'shimcha va o'zgarishlar).

Soliq organlari huquq va vazifalarini umumiy tavsifi va o'ziga xos xususiyatlari hamda takomillashtirish masalalari.

3. AMALIY MASHG'ULOTLARI MAVZULARI

Asosiy e'tibor amaliy mashg'ulotlarning yuqori saviyada tashkil etilishiga, talabalarning har bir mavzu bo'yicha puxta tayergarliklariga, mustaqil o'rganish uchun tavsiya etiladigan muammoli mavzularga qaratilishi kerak.

Soliq xizmati idoralari soliq yuzasidan ishlarni tashkil qilish. O'zbekiston Respublikasi soliq xizmati idoralari tashkiliy tuzilmalari va takomillashtirish masalalari

O'zbekiston Respublikasi soliq xizmati idoralari tashkiliy tuzilmalari*. Davlat soliq xizmati idoralari tashkiliy tuzilmalari. Davlat soliq xizmati idoralari tashkiliy bo'g'inlarining o'zaro aloqasi. Soliq xizmati idoralari funktsiyalari va vazifalari. O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi qonuniga asosan soliq xizmati idoralari vazifalari va majburiyatlari.

Soliq organlarining tashkiliy asoslari soliq tizimini zaruriy elementi sifatida

Davlat soliq xizmati idoralari tomonidan yuridik shaxslar to'laydigan soliqlarning to'g'ri hisoblanishi, hisob-kitoblarni belgilangan muddatlarda taqdim etilishi ustidan nazorati. Yuridik shaxslarning soliq qonunchiligini buzganligi uchun javobgarligi*.

O'zbekistonda soliq organlarining shakllanish bosqichlari va rivojlanish tarixi

Davlat soliq xizmati idoralari tomonidan jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlari haqidagi deklaratsiyani to'ldirishni tekshirish*. Mahalliy byudjetga soliqlarni o'z vaqtida tushishini nazorati.

Soliq idoralarini huquq va vazifalarini hamda tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish

Soliq sub'ektlarining soliq borasidagi majburiyatlari va javobgarliklari*. Soliqlar va yig'implarni undirish tartibi. Soliq qonunchiligining buzilishi hollarida qo'llaniladigan moliyaviy va ma'muriy choralar.

4. INFORMATsION TEXNIK VOSITALAR

Bu fanni o'qitishda zamonaviy texnik vositalardan, kompyuter va quyidagi informatsion texnik vositalardan foydalanish belgilangan:

1. Kompyuter;
2. Audio va video jihozlar;
3. Diaproektor;
4. Kodoskop;
5. Grafoproektor;
6. Statistika ma'lumotlar;
7. Kalkulyator va boshqa apparaturalar.

5. O'ZLASHTIRISH NAZORATI

Fan bo'yicha talablarning o'zlashtirishini baholash semestr (o'quv yili) davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlar orqali amalga oshiriladi:

- joriy baholash (JB);
- oraliq baholash (OB);
- yakuniy baholash (YaB).

JB va OB ballar miqdori (o'quv rejasida fanga semestr (o'quv yili) uchun ajratilgan soatning) 70%, yakuniy baholash esa 30% miqdorda belgilanadi. Fan bo'yicha dastur to'la o'rganilgandan keyin YaB yozma ish usulida (o'quv rejasiga ko'ra) o'tkaziladi.

Bu fanni o'qitish soatlari 1-kurs magistrantlari uchun 20 soat ma'ruza, 20 soat amaliy mashg'ulot, 20 soat mustaqil ta'lim, 2-kurs magistrantlari uchun 40 soat ma'ruza, 40 soat amaliy mashg'ulot, 40 soat mustaqil ta'lim qilib belgilangan.

Tayanch iboralarga asoslangan yozma ishni o'tkazish tartibi "Reyting tuzishning yakuniy baholash bosqichida" "Yozma ish" usulini tadbiiq etish bo'yicha Namunaviy nizomi bilan belgilanadi. Semestr (o'quv yili) davomida o'qitilgan fan bo'yicha 55 va undan yuqori foizni to'plagan talaba qoniqarli o'qitayotgan deb hisoblanadi. Fan bo'yicha maksimal ballning 55% idan kam ball to'plagan talaba qoniqarsiz o'qiyotgan (akademik qarzdor) deb hisoblanadi.

Demak, oraliq baholashda 1-kurslar uchun eng yuqori ball 14,0 ni tashkil etib, magistrant ushbu ballning 55%idan - 100%igacha oralig'ida ya'ni, 7,7 balldan - 14,0 ballgacha to'plashi mumkin. Joriy baholashda ham eng yuqori ball 14,0 ni tashkil etib, magistrant ushbu ballning 55%idan - 100%igacha oralig'ida ya'ni, 7,7 balldan - 14,0 ballgacha to'plashi mumkin. Yakuniy baholashda esa yuqori ball 12,0ni tashkil etib, magistrant ushbu ballning 55%idan - 100%igacha oralig'ida ya'ni, 6,6 balldan - 12,0 ballgacha to'plashi mumkin.

Semestr davomida fan bo'yicha to'plagan ballar quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari bilan baholanadi:

- 86 - 100 - "a'lo";
- 71 - 85 - "yaxshi";
- 55 - 70 - "qoniqarli".

6. ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi,- T.: O'zbekiston, 1993.
2. O'zbekiston Respublikasi "Moliyaviy qonunlar". -T.: O'zbekiston, 1997.
3. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. -T.: O'zbekiston 1992.
4. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. -T.: O'zbekiston, 1996.
5. O'zbekiston Respublikasining "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi Qonuni. -T.: O'zbekiston, 1997.
6. O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonuni. -T.: O'zbekiston 1997.
7. O'zbekiston Respublikasining "Soliq kodeksi". -T.:O'zbekiston, 1997.
8. O'zbekiston Respublikasining 1999 yil uchun ijtimoiy - iqtisodiy ko'rsatkichlari. Statistik tuplam. -T., 2000.
9. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston, 1997.
10. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirish yo'lida. -T.: O'zbekiston, 1995.
11. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqarorlik taraqqiyot yo'lida. T. 6. -T.: O'zbekiston, 1998.
12. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash-davr talabi. T. 5. -T.:O'zbekiston, 1997.
13. Brizgalin, A. V. Nalogovie spori. 1997-1998 g.g.
14. Buxgalterskiy uchets i nalogooblojenie: osnovi orgaizatsii buxgalterskogo ucheta. Buxgalterskiy uchets proizvodstvennoy deyatelnosti. Nalogi i ix uchets. Otchetnost, v tom chisle konsolidir. / N.L. Veshchunova,L.F. Fomina. -M.:Gerda, 1999.
15. Gadoev E.F. i dr. Nalogi v Respublike Uzbekistan v 1997 g.: Metodicheskoe posobie.2-e izd., dop. I pereab. -T.: Mir ekonomiki i prava, 1997.
16. Gadoev E.F. Yugay I.V. Metodicheskoe posobie Nalogi v Respublike Uzbekistan" v 1999-2000gg.
17. Seginevich A.V., Buxvald E.M., Easova O.M., Ivanovskiy S.I. Nalogi v mexanizme xozyaystvovaniya :M.:NAUKA, 1991.
18. Tolstopyatenko G.N., Fedotova I.G. Nalogovoe prava SShA. Terminologiya. Chebnoe posobie. -M. "ANKIL", 1996.
19. Chernik D.G., Pochinok A.P., Morozov V.P. Osnovi nalogovoy sistemi: Uchebnoe posobie dlya vuzov. / Pod.red. Chernika D.G. - M.:Finansi,YuNITI, 1998.
20. Yahyoev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. Darslik, -T.: 2000.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Nalogi i nalogovoe planirovanie v mirovoy ekonomike: Ucheb.posobie / Sutirin S.F., Pogorletskiy A.I.; S.-Peterb. Gos. Un-t. Kaf. Mirovoy ekonomiki.-SPb.: Izd-vo Mixaylova V.A.:Polius, 1998.
2. Nalogoviy kodeks Kirgizskoy Respubliki, -Bishkek: 1999.
3. Nalogoviy kodeks Rossiyskoy Federatsii: (S vvod. Komment. A.V. Brizgalina). - Ekaterinburg: Tsentr "Nalogi i fin. Pravo"; -M.: Analitika-Press, 1999.
4. Brizgalina A.V. Nalogi i nalogovoe pravo. - M.: Analitika - Press, 1999.
5. Vasha deklaratsiya o doxodax - (Seriya Rekomendatsii nalogoplatelshchiku) / Sokol M.P., Emelyanov S.V. - M.: FBK-PRESS, 1998.
6. Gataulin Sh. K. Nalogi i nalogooblojenie. - T.: 1996.
7. Deykin A.I. Mexanizm federalnogo byudjeta SShA. (Byudjetnaya politika i 80-e gg). -M: Nauka, 1989.
8. Dernberg R.L. Mejdunarodnoe nalogooblojenie. Kratkiy kurs. Perevod s ang., M.: YuNITI, 1997.
9. Dernberg R.L. Mejdunarodnoe nalogooblojenie. - M.: YuNITI, Budapesht: COLPI, 1998.
10. Yo'ldoshev M., Tursunov Y. Soliq huquqi. - T.: Moliya, 2000.
11. Kozirin A.N. Pravovoe regulirovanie nalogooblojeniya v zarubejnix stranax. -M. Finansi. 1994 № 5.
12. Malikov T. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. - T.: Akademiya, 2002.
13. Meshcheryakova O. Nalogovie sistemi razvitix stran mira. Spravochnik. - M.: Fond Pravovaya kultura, 1995.
14. Nalogovie sistemi zarubejnix stran. - 2-e izd. M.: Zakon i pravo, YuNITI, 1997.
15. Petti V., Smit A., Rikardo D. Antologiya ekonomicheskoy klassiki. - M. Ekonom-klyuch, 1993.
16. Petti V. Traktat o nalogax. - M.: Ekonom-klyuch. 1995.
17. Pushkareva V.M. Istoriya finansovoy misli politiki nalogov. - M.: Infra-M, 1996.
18. Sutirin S.F., Pogorlektsiy A.I. Nalogi i nalogovoe planirovanie v mirovoy ekonomike. /Pod red. Sutirin S.F./ - SPb.: Polius, 1998.
19. Timofeeva O.F. Nalogovaya sistema Rossii: nastoyashchee i budushchee. - M.: 1996.
20. Finansoviy rinoq Rossii: problemi formirovaniya i funktsionirovaniya. Sbornik nauchnix trudov. pod redaktsiey d-ra ekon. nauk. prof. V.I. Kolesnikova. - Sank-Peterburg.: 2000.
21. Chernik D.G. Nalogi v rinochnoy ekonomike. - M.: Finansi, YuNITI, 1997.
22. Shamsutdinov F.Sh., Rixsieva M.X., Kudratov G.X. Nalogovaya sistema SShA. - T.: 1998.
23. Shaulov D.I., Kan. U.T. Soliq qonunchiligi asoslari. T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi 2000.
24. L.B. Xvan. Soliq huquqi. - T.: Konsauditinform, 2000.
25. V.S. Beganov, M.Ya. Qurolov, D.I. Shaulov, U.T. Kan, Finansova politika, nalogi i nalogooblojenie. - T.: Mir ekonomiki i prava 1998.
26. Kolchin S.P. Nalogi i nalogooblojenie. Praktikum. Uchebnoe posobie -M.: Finstatinform, 2000.
27. O'zbekiston Respublikasi Soliq qonunchiligi asoslari normativ aktlar to'plami. 1-2 kism. Toshkent 2002 y.
28. 2002 yil soliqlari va majburiy to'lovlar bo'yicha ma'lumotnoma. Toshkent - 2002.
29. Mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaaiy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom. Toshkent - 1999, 05.02.1999.
30. Smit A. Issledovanie o prirode i prichinax boga narodov". M. Ekonom", - Klyuch 1998.
31. Eriashvili N.D. Nalogovie sistemi zarubejnix stran. Uchebnik dlya vuzov / Pod red. prof. V.G. Knyazeva, prof. D.G. Chernika. 2-e izd., pererab. i dop. / - M.: Zakon i pravo, YuNITI, 1997.

32. Yahyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi. T., G'.G'ulom, 2000.
33. Yahyoev Q.A. O'zbekistonda soliq tizimi. - T.: Mehnat, 1998.
34. O'lmasov A. Iqtisod asoslari. - T.: 1997.
35. Axmedov R.N. Vse doxodi - v stroku deklaratsii. Nalogovie i tamojennie vesti, 1996, № 3.
36. Jami yillik umumiy daromad haqida deklaratsiya (bayonnoma) to'ldirish bo'yicha uslubiy qo'llanma. / Soliq to'lovchining jurnali, 2000 yil 2-son.
37. Sobirov X. Buxoro amirligida soliqlar. /Soliq to'lovchining jurnali, 1997 yil 8-son.
38. Saburova S. Xiva xonligida soliq (qo'ng'irotlar davri). /Soliq to'lovchining jurnali, 2001 yil 12-son.
39. Uproshchena sistema nalogooblojeniya. /Ekonomicheskoe obozrenie/ 2002 yil № 1-2 (29-30).
40. Yuldashev I. Umumdeklaratsiyalash tizimi. /Soliq to'lovchining jurnali, 2002 yil 2-son.
41. Government Finance Statistics Yearbook 2000. Pg-5.
42. Government Finance Statistics Yearbook 1993, 1999 y.
43. J.S. Mon Nobes. The Economics of Taxation. Third Edition. - Oxford ect.1993. p 247.
44. The property tax and its administration. Edited by Arthur P.LynnJr. London, Madison, Milwaukee.